

## FERMER XO`JALIKLARINI MAQBULLASHTIRISH ASOSIDA YERDAN SAMARALI FOYDALANISHNI OSHIRISH MASALALARI

X.B.Meyliyeva

*"TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va  
agrotexnologiyalar institutining asistenti*

**Annotatsiya.** Maqlada bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo`jaligi ekin yerlaridan foydalanish jarayonidagi yuzaga kelayotgan muammolar va ularning tahlili keltirilgan. Qishloq xo`jaligida yetakchi ishlab chiqarish sub`yektlari hisoblangan fermer xo`jaliklarida yerdan foydalanish darajasi, ulardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish va yer maydonlarini maqbullashtirish me`zonlari berilgan. Shuningdek Respublikamizdagi mavjud fermer xo`jaliklari tasarrufidagi yer maydonlarini maqbullashtirish borasidagi qo`shimcha chora tadbirlarni amalgalash va tuproq unumdarligini yaxshilash yo`li bilan ular faoliyatini samaradorligini oshirish bo`yicha tavfsiya va xulosalar berilgan.

**Kalit so`zlar:** Yer fondi, yer resurslari, yer uchastkasi, yer turlari, qishloq xo`jaligi, fermer xo`jaligi, maqbullashtirish, yerdan foydalanish, yer tuzish, yer kadastro, ijara shartnomasi, yer kodeksi, ekin yerlari.

**Абстрактный.** В статье представлены проблемы, возникающие в процессе использования сельскохозяйственных угодий в условиях рыночной экономики и их анализ. Приведены критерии уровня землепользования, организации рационального и эффективного использования и оптимизации земельных площадей в хозяйствах, рассматриваемых как ведущие производственные предприятия в сельском хозяйстве. Также были даны описания и выводы по реализации дополнительных мероприятий по оптимизации земельных площадей, находящихся в собственности действующих фермерских хозяйств нашей Республики, и по повышению эффективности их деятельности за счет повышения плодородия почв.

**Ключевые слова:** Земельный фонд, земельные ресурсы, земельный участок, типы земель, сельское хозяйство, хозяйство, оптимизация, землепользование, формирование земель, земельный кадастровый договор аренды, земельный кодекс, пашня.

**Abstract.** The article presents the problems arising in the process of using agricultural arable land in the conditions of the market economy and their analysis. Criteria for the level of land use, organization of rational and efficient use and optimization of land areas in farms considered as the leading production entities in agriculture are given. Also, descriptions and conclusions were given on the implementation of additional measures to optimize the land areas owned by existing farms in our Republic and to improve the efficiency of their activities by improving soil fertility.

**Key words:** Land fund, land resources, land plot, land types, agriculture, farm, optimization, land use, land formation, land cadastre, lease agreement, land code, arable land.

**Kirish.** Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirishga qaratilgan izchil islohotlar iqtisodiy va ijtimoiy muhim resursi hisoblangan yer resurslaridan oqilona foydalanish va uning samaradorligini oshirish, mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish, muhim iqtisodiyot tarmog'i hisoblangan qishloq xo`jaligida yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish va sug'oriladigan ekin yerlarining unumdorligini oshirishga qaratilgan.

Bugungi kunda Respublikamizda qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini yanada oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, fermer va dehqon xo`jaliklariga ajratilgan yer maydonlarida foydalanishda mulkchilikni yanada rivojlantirish va yer egaliklari subyektlarining manfaatdorligini oshirish uchun ham zarur ishlar amalga oshirilmoqda.

So`nggi yillarda qishloq xo`jaligida yer va suv munosabatlarini tartibga solish, qishloq xo`jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish, sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, past hosilli paxta va g`alla maydonlarini qisqartirish hisobiga yuqori daromadli, eksportbob mahsulotlar yetishtirish, qishloq xojaligimiz oldida turgan muhim vazifalardandir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 22-oktabrdagi “O`zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora tadbirlari to`g`risida” PF-4478 sonli hamda 2019-yil 23-oktabrdagi “O`zbekiston Respublikasi qishloq xo`jaligini rivojlantirishning 2020- 2030 yillarga mo`ljallangan strategiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PF-5853 sonli Farmonlarda va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 15-dekabrdagi 362-tonli “Fermer xo`jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora tadbirlari to`g`risida”gi hamda 2019-yil 9-yanvardagi 14-tonli “Fermer xo`jaliklar va boshqa qishloq xo`jaligi korxonalari yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo`jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanishga doir qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida”gi qarorida belgilanganidek so`nggi yillarda qishloq xo`jaligi sohasida bozor munosabatlarini joriy etish, sohga innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash va yerdan foydalanish tizimida xususiy mulkchilik shakllarini rivojlantirishga yo`naltirilgan islohotlar, keng ko`lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. [6]

O`zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”, “Fermer xojaligi to`g`risida”gi, “Dehqon xo`jaligi to`g`risida”gi qonunlar hamda boshqa qonunchilik va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlari Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishning yetakchi sub`yeqtari hisoblangan fermerlik tarmog'ini rivojlantirish, ularning iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligi uchun mustahkam huquqiy kafolatlar yaratib beruvchi qonun hujjatlari sanaladi.[1, 2]

**Tadqiqot ob'yekti va uslublari.** Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan sharoitda Respublikamiz qishloq xo`jaligining yetakchi tarmog'i hisoblangan fermer xojaliklarini ko`p tarmoqlikga ixtisoslashishi ularning iqtisodiy va barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim yo`nalishlaridan biridir. Albatta boshlangich bosqichda fermer xo`jaliklarining ko`p tarmoqli fermer xo`jaliklariga aylanishi qishloq xo`jaligi maxsulotlarni yetishtirish va uni qayta ishlash hisobiga tayyor mahsulot tannarhining pasayishiga va mahsulot sifatini, tabiiyligi kabi jihatlarni yaxshilanishini ta`minlaydi qolaversa fermer xo`jaligida mehnat qilayotgan

ishchilarning moddiy daromadini yanada yaxshilash, hamda fermer xojaligining yuksalishiga , xo`jalikda qulay boshqaruvni yuritishga zamin yaratadi.

Ma'lumotlarga qaraydigan bo`lsak, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiylar maydoni 2021-yil 1-yanvar holatiga ko`ra jami yerlar 44892,4 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 4331,7 ming gektarni yoki umumiylar maydonining 9,6 foizini tashkil qiladi. Respublikada qishloq xo`jaligi korxonalarini va tashkilotlarining soni fermer xo`jaliklari bilan birgalikda olganda, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko`ra 112855 ta bo`lib, ularga biriktirib berilgan yerlarning umumiylar maydoni 24057,1 ming gektarni , shu jumladan qishloq xo`jalik yer turlari maydoni 19450,6 ming gektarni , shundan 3693,8 ming gektari sug'oriladigan yerlarni tashkil qiladi.

Fermer xo`jaliklarining 2021-yil 1-yanvar holatiga ko`ra umumiylar soni 90740 tani, shu jumladan ixtisosligi : paxta-g'allachilik 27411 ta, g'allachilik 7580ta, chorvachilik 9942 ta, bog'dorchilik 23408 ta, uzumchilik 5173 ta, sabzavotchilik-polizchilik 5669 ta, tutchilik 632 ta hamda boshqa yo`nalishda 10924 tani tashkil qildi. Respublikamizda 2021-yil 1-yanvar holatiga ko`ra, ularga ajratib berilgan umumiylar maydoni 5463,6 ming gektarni , shu jumladan, ekin yerlari 3148,1 ming gektar, shundan sug'oriladigan ekin yerlari 3238,8 ming gektar, ko`p yillik daraxtzorlar 281,9 ming gektar, bo`z yerlari 32,8 ming gektar, pichanzor va yaylovlari esa 1377,5 ming gektar, hamda boshqa qishloq xo`jaligida foydalilmaydigan yerlar 587,3 ming gektarni tashkil qildi.[6]

Respublika viloyatlarda mavjud fermer xo`jaliklarining 2021-yil 1- yanvar holatiga soni, yer maydoni va yer turlari bo`yicha taqsimlanishi 1.3.1 jadvalda, fermer xo`jaliklari sonining o`zgarishi 1.3.1 hamda yer maydonining o`zgarishi 1.3.2 rasmlarda, ixtisoslashtirilganligi bo`yicha taqsimlanishi 1.3.3 rasmida ko`rsatilgan:

1.3.1-jadval

**Коракалпогистон Республикаси ва вилоятларда мавжуд фермер хўжаликларининг  
сони, ер майдони ва ер турларлари бўйича тақсимланши**


T/p	Республика, вилоятларнинг номи	Фермер хўжаликларининг сони	Узумий трайденин	Экин ерлар			Кўп йилинк дарҳозлорлар					Бўз сирар	Пичагорлар ва яйловлар	Жами юшлок хўжалик травни	Бўзга сирар				
				Жами	шу жумладан:		Жами	шу жумладан:											
					Сугораличин	Ламин		Боғар	Узумерар	Гузорар	Мезан кўзатни ва бона дарҳозлорлар								
1	Коракалпогистон Республикаси	5185	812,7	302,9	302,9	0	2,9	1,5	0,1	1,3	0	5,6	344,8	656,2	156,5				
2	Андижон	8229	213,4	166,2	166,2	0	19,6	15,6	1,6	2,3	0,1	1	4	190,8	22,6				
3	Бухоро	4801	294,6	181,1	181,1	0	16,7	9,1	5,6	2		5,6	21,2	224,6	70				
4	Жиззах	7828	589,7	390,4	216	174,4	13,2	9,6	3,1	0,5		2,2	153,6	559,4	30,3				
5	Кашкадарё	12358	795,9	547,9	363	184,9	25,1	14,4	5,9	4,7	0,1	5	181,4	759,4	36,5				
6	Навоий	2171	150,2	97,4	81,2	16,2	8,4	3,6	4,2	0,6		5,9	26,3	138	12,2				
7	Наманган	7007	255,2	169,4	169,4	0	22,5	15,9	4,9	1,6	0,1	1,2	20,4	213,5	41,7				
8	Самарқанд	12566	563,7	384,7	238,2	146,5	58	21	29,2	7,7	0,1	1	90,2	533,9	29,8				
9	Сурхондарё	6172	702,7	187,1	158,4	28,7	19,3	10,4	7,6	1,2	0,1	0	432,5	638,9	63,8				
10	Сирдарё	3960	170,4	145,8	145,8	0	4,8	4	0,3	0,5	0	2,4	5	158	12,4				
11	Тошкент	6584	352,7	195,9	173,2	22,7	35,4	23,7	10,4	0,6	0,7	0,8	96,2	328,3	24,4				
12	Фарғона	9941	337,2	238,3	238,3	0	47,7	42,3	2,3	3,1		0	1,4	287,4	49,8				
13	Хоразм	3937	225,2	177	177	0	8,3	7	1	0,3		2,1	0,5	187,9	37,3				
	Жами:	90739	5463,6	3184,1	2610,7	573,4	281,9	178,1	76,2	26,4	1,2	32,8	1377,5	4876,3	587,3				



1.3. 1-расм. Республикада фермер хўжаликлари сонининг ўзгариши.



1.3. 2-расм. Республикада фермер хўжасицлари ер майдонларининг ўзгариши.



1.3. 3-расм. Республикада фермер хўжасицларининг ихтинослиги бўйича тақсимланиши (% ҳисобида)

2021-yil 1-yanvar holatiga ko`ra, 2020-yilda respublikamizda mavjud fermer xo`jaliklarining umumiy soni 90740 ta (2019-yilda 84222ta) bo`lsa, shu jumladan ixtisosligi : paxta-g’allachilik 27411 ta (2019-yilda 25597 ta), g’allachilik 7580 ta (2019-yilda 6436 ta), chorvachilik 9942 ta (2019-yilda 10133 ta), bog’dorchilik 23408 ta (2019-yilda 21030 ta), uzumchilik 5173 ta (2019-yilda 4864 ta), sabzavotchilik-polizchilik 5669 ta (2019-yilda 4773 ta), tutchilik 632 ta (2019-yilda 743 ta) hamda boshqa yo`nalishda 10924 (2019-yilda 10646 ta) tani tashkil qildi. Respublikamizda 2021-yil 1-yanvar holatiga ko`ra, ularga ajratib berilgan umumiy yer maydoni 5463,6 ming hektarni (2019-yilda 7331 ming hektar), shu jumladan, ekin yerlari 3148,1 ming hektar(2019-yilda 3271,9 ming hektar), shundan sug’oriladigan ekin yerlari 3238,8ming hektar ( 2019- yilda 3693,8 ming hektar), ko`p yillik daraxtzorlar 281,9 ming hektar (2019-yilda 273,5 ming hektar), bo`z yerlar 32,8 ming hektar(2019-yilda 31 ming hektar), pichanzor va yaylovlar esa 1377,5 ming hektar(2019-yilda 3131,2 ming hektar), hamda boshqa qishloq xo`jaligida foydalanimaydigan yerlar 587,3 ming hektar (2019-yilda 623,4 ming hektar)ni tashkil qildi.[6, 7]

**Tadqiqot natijasi va ularning muhokamasi.** O’tkazilgan tahlillar natijasida ma’lum bo’ldiki, so`nggi yillarda qishloq xo`jaligida yangi xo`jalik yurituvchi boshqaruvi shakllarining paydo bo’lganligi, shu jumladan, Agroklasterlar, Agrofirma va Koperatsiyalar, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan faoliyati uzviy bog’liq bo’lgan uyushma va ma’suliyati cheklangan jamiyatlarini tashkil etish orqali, qishloq xo`jaligi rivojlanishida sog’lom raqobat muhitini paydo bo’lishiga zamin yaratildi hamda qishloq xo`jaligi mahsulotlarining oshishi va eksport salohiyatini kengaytirixh

orgali ko`plab ish o`rinlari yaratildi.

Yerning qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish tarmog'ida muhim vositasi sifatidagi funktsiyasi yer fondidan oqilona foydalanishni, tuproq unumdonorligini saqlash va oshirish , uning tarkibi va xususiyatlarini doimiy o`rganib borishni talab qiladi. Bu eng avvalo, yerdan oqilona foydalanishga yo`naltirilgan, ilmiy asoslangan tadbirlar majmuini ishlab chiqishga izchillik bilan yondoshish va amalda to`plangan tajribalarga tayangan holda tashkil etishni zaruriyatini tug'diradi. Buning uchun yerlardan foydalanish darajasi va tuproq sifatini har tomonlama o`rganish, iqtisodiy va ekologik jihatdan baholash muhim ahamiyatga egadir.[4] Bugungi kunda jamiyatda va iqtisodiyot tarmoqlarida yerga bo`lgan talabning keskin ortayotganligini hisobga olgan holda yer resurslari boshqaruvini integratsiyalash va shu orqali yer tuzish, yer kadastro ishlarini to`gri tashkil etish va uni yuritish tizimini takomillashtirish hamda yer munosabatlarini tartibga solish shular jumlasiga kiradi.

Fermer xo`jaliklarining faoliyatini samarali tashkil etishda ularning ixtisoslik va ishlab chiqarish yo`nalishlariga ixtisoslashtirish hamda mahsulot yetishtirishning eng maqbul o`lchamini aniq belgilash muhim omil hisoblanadi. Chunki, tanlab olingen ixtisoslikka qarab fermer xo`jaligining asosiy vositalari ( yer maydonining hajmi, chorva mollari soni, texnika, jihozlar va hokazolar)ni shakllantiriladi. Fermer xo`jaligida mehnat qiladigan ishchilarni ishga jalgan qilish ham shunga qarab belgilanadi. So`nggi yillarda fermerlar faoliyatini o`rganish, ularning iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari tahlili natijalari bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan fermer xo`jaliklari maydonlari optimal qilib ajratilmaganligi ko`rinib turibdi. Natijada fermer xo`jaliklarida yetishtirilayotgan mahsulotlarining tannarhi yuqori, sifati esa past bo`lmoqda. Bu esa o`z navbatida Bozor iqtisodiyoti sharoitida fermer xo`jaliklarining raqobatbardoshligining pasayishiga sabab bo`lmoqda.

Fermer xo`jaliklarini tashkil etish, va mavjudlarini qayta tashkil etish jarayonida ajratilayotgan yerlar maydonlari maqbul( optimal) o`lchamga ega bo`lishi muhim ahamiyatga egadir.

Fermer xo`jaligining optimal yer maydoni deganda – ishlab chiqarish xarajatlari yo`l qo`yarlik darajada bo`lgan, xo`jalikning ishlab chiqarish sohalari muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatishlari va rivojlanishlari uchun zarur yer turlari bilan ta`minlanganlik tushuniladi. [3]

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-yanvardagi 14-sonli “Fermer xo`jaliklari va boshqa qishloq xo`jaligi korxonalari yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo`jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`grisida”gi qaroriga binoan fermer xo`jaliklari va boshqa qishloq xo`jaligi korxonalariga faoliyat yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirishga quyidagi talablar qo`yiladi.

Qishloq xo`jaligi korxonalari yer uchastkalarining hajmlari ularning faoliyat yo`nalishlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha belgilanadi:

paxtachilik va g`allachilik yo`nalishidagi qishloq xo`jaligi korxonalari yer uchastkalari maydonlarining eng kam o`lchami — 100 hektar;

g`allachilik va sabzavotchilik yo`nalishidagi qishloq xo`jaligi korxonalari yer uchastkalari maydonlarining eng kam o`lchami — 20 hektar;

bog`dorchilik va uzumchilik yo`nalishidagi qishloq xo`jaligi korxonalari yer

uchastkalari maydonlarining eng kam o'lchami — 10 hektar;

sabzavotchilik va polizchilik yo'nalishidagi qishloq xo'jaligi korxonalari yer uchastkalari maydonlarining eng kam o'lchami — 5 hektar.

Chorvachilik yo'nalishidagi qishloq xo'jaligi korxonalari yer uchastkalarining hajmlari qonunchilikda belgilangan tartibda mavjud shartli mol bosh sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi. [8]

**Xulosa, taklif va tavfsiyalar.** Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biridir. Qishloq xo'jaligi rivojlanishi esa bevosita fermer xo'jaliklari faoliyatining rivojlanishi va ularning samaradorligiga bog'liq bo'lib, fermer xo'jaliklarida yerdan oqilona foydalanishni tashkil qilish, yer uchastkalarining optimal o'lchamlarini aniqlash va shu asosda ishlab chiqarishni tashkil qilish yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, tuproq unumдорligini yaxshilash va oshirishga yo'naltirilgan kompleks ishlarni amalga oshirish hamda fermer xo'jaliklari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 1998.(2011-yill-martgacha bo`lgan o`zgartirish va qo`shimcha bilan) – T.: “Adolat” , 2011.- 152 bet.
2. O`zbekiston Respublikasining “Fermer xojaligi to`g’risida”gi qonuni 1998. (2011-yil 1-martgacha bo`lgan o`zgartirish va qo`shimcha bilan) – T.: “Adolat” , 2011.
3. Avezbayev S.A., Volkov S.N. YER Tuzishni loyihalash / Darslik. T.: Yangi asr avlod, 2006. - 445 bet.
4. Bobojonov A.R. , Rahmonov Q.R. , Gofirov A.J. Yer kadastri / Darslik. – T.: TIMI. 2008. – 212 bet.